



UDK 327.56(510)

Rustam RAYIMJANOV,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, g.f.n

E-mail: rustam19761206@gmail.com

Sherzod JO'RAEV,

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi, PhD

O'zMU dotsenti, g.f.n M.Egamberdieva taqrizi asosida

MINTAQAVIY SIYOSATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: XITOIY TAJRIBASI

Аннотация

Ushbu maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga keltirish borasida amalga oshirilgan mintaqaviy siyosat Xitoy tajribasi misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy siyosat, mintaqaviy differentsiatsiya, hududiy dastur, qoloq hudud, tartibga keltirish, yalpi ichki mahsulot.

ОСОБЕННОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ: КИТАЙСКИЙ ОПЫТ

Аннотация

В данной статье на примере опыта Китая освещена региональная политика, реализуемая государством по регулированию социально-экономического развития регионов.

Ключевые слова: региональная политика, территориальная дифференциация, региональная программа, отсталый регион, регулирование, валовой внутренний продукт.

FEATURES OF REGIONAL POLICY: CHINESE EXPERIENCE

Annotation

This article, using the example of China's experience, highlights the regional policy implemented by the state to regulate the socio-economic development of regions.

Key words: regional policy, regional differentiation, regional program, backward region, regulation, gross domestic product.

Kirish. Ma'lumki, mintaqaviy siyosat hududlarni davlat tomonidan tartibga solishning ajralmas qismi hisoblanib, hududlarda iqtisodiyot tarmoqlarini oqilona joylashtirishga va aholi turmush darajasini tenglashtirishga xizmat qiluvchi meyoriy, ma'muriy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuidan iboratdir. Bu tanlangan rivojlanish strategiyasiga muvofiq davlat siyosatining tarkibiy qismidir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda barcha davlatlar o'zining ichki mintaqaviy siyosati orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga harakat qiladi. Hozirgi kunda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajasiga erishgan mamlakatlarning bu boradagi tajribalarini o'rganish, mamlakatimiz uchun mos keluvchi jihatlarni ajratib olish va amaliyotga joriy etish kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga doir ma'lumotlar 2005 yilda nashr etilgan "Региональная экономическая политика Китая: стратегия возрождения северо-восточных районов" //№ 4 –son "Регион: экономика и социология" jurnali, 2010 yilda chop etilgan "Китай – страна-«супергигант»: проблемы и преимущества // Страны-гиганты: проблемы территориальной стабильности" (Sbornik dokladov), 2015 yilda A.V. Kuznetsova, O.V.Kuznetsovalar tomonidan chop etilgan "Региональная политика: зарубежный опыт и российские реалии", 2019 yilda Pestov S.K. tomonidan chop etilgan "Управление региональным развитием: опыт Китая" adabiyotlarida keltirilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalikni hududiy tashkil etishni davlat tomonidan tartibga keltirishning xorijiy tajribasi, aynan Xitoyda amalga oshirilgan mintaqaviy siyosat masalalari mahalliy olimlardan N.G. Mo'minov ("Xitoy iqtisodiyotidagi zamonaviy mintaqalararo nomutanosiblik muammolari" (Monografiya)) tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishning maqsadi turli darajada rivojlangan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat tomonidan tartibga keltirishning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lgan mintaqaviy siyosat masalalarini ayni vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Xitoy tajribasini tahlil qilishdan iborat. Qo'yilgan maqsad doirasida quyidagi vazifalar belgilab olindi: ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan Xitoy tomonidan o'tgan asrning 80-90 yillaridan boshlab hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga keltirish borasida amalga oshirilgan mintaqaviy siyosat masalalarini o'rganib chiqish hamda ularning ushbu yo'nalishlarda bosib o'tgan tajribalarini o'rganish asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hududiy siyosiy hamda iqtisodiy islohatlar doirasida qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tahlil va natijalar. Xitoyda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan mintaqaviy siyosatga muvofiq mamlakatning turli qismlari jahon iqtisodiy munosabatlari tizimiga turlicha sur'atlar va ko'lamlarda kirib bormoqda. Dastlabki bosqichda bular Sharqiy Xitoyning provintsiyalari bo'lib, ularga turli xil davlat yordamlari taqdim etilgan. Xususan, ularga nisbatan maxsus (ko'proq liberal) soliq, bo'xona va moliyaviy rejimlar, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tartibi joriy qilingan, shuningdek infratuzilma loyihalariga yirik davlat investitsiyalari kiritilgan. Sharqiy provintsiyalar Xitoyning qolgan qismlarining iqtisodiy rivojlanishi uchun lokomotivga aylanishi kerak edi deb taxmin qilingan edi. Ushbu siyosat tufayli Sharqiy Xitoy ulkan iqtisodiy

muvaffaqiyatlarga erisha oldi. Shu bilan birga, Sharqiy Xitoyning mamlakatning qolgan qismlarining iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri cheklanganligicha qolmoqda. Iqtisodiy islohatlar davomida iqtisodiy differentsiatsiya hatto kuchayib ketdi.

Endilikda Xitoy mintaqaviy siyosatning ikkinchi bosqichiga o'tdi – ya'ni mintaqalararo differentsiatsiyani yumshatish uchun Markaziy, Shimoli-Sharqiy va G'arbiy Xitoyning rivojlanishda orqada qolayotgan mintaqalariga yordam ko'rsatila boshlandi. Sharqiy Xitoy misolida bo'lgani kabi, infratuzilma loyihalariga davlat investitsiyalari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun maksimal darajada imtiyozli davlat rejimini joriy etish, shuningdek, maxsus soliq siyosatiga e'tibor qaratilmoqda. Mintaqaviy siyosatning yangi bosqichi o'z samarasini berib, Xitoyning turli qismlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi farq asta-sekin bo'lsa-da, pasayib bormoqda. Keyingi muvaffaqiyatli qadamlardan biri Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sur'atlari va iqtisodiy rivojlanishning eksportga yo'naltirilgan modelidan ichki iste'mol talabining ustuvorligiga asoslangan modelga o'tish bilan bog'liq bo'ldi.

1980-yillarda iqtisodiy islohatlar boshlanishi bilan Xitoyda to'rtta iqtisodiy makromintaqa ajratildi (1950-1980 yillarda Xitoy 6 ta "hamkorlik rayonlari"ga ajratilgan: shimoli-sharqiy, shimoliy, sharqiy, markaziy-janubiy, janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy. Rayonlashtirish jarayoni iqtisodiy o'zaro bir-birini to'ldirish tamoyiliga asoslangan edi):

– **Sharqiy Xitoy:** sohilbo'yi provintsiyalari Xaynayn, Guangdong, Futszyan, Chjetszyan, Tszyansu, Shandun, Xebey, markazga bo'ysunuvchi Pekin, Tyantszin va Shanxay shaharlari;

– **Markaziy Xitoy:** Xunan, Tszyansi, Xubey, Anxoy, Xenan va Shansi provintsiyalari;

– **Shimoli-sharqiy Xitoy:** Lyaonin, Tszyilin (Girin) va Xeyluntszyan provintsiyalari;

– **G'arbiy Xitoy:** Ichki Mo'g'uliston, Tibet, Shinjon-Uyg'ur, Ninsya-Xuy va Guanchji-Chjuan avtonom rayonlari, Yunnan, Guychjou, Sichuan, Gansu, Tsingxay, Shensi provintsiyalari va markazga bo'ysunuvchi Chuntsin shahri.

Sharqiy Xitoy butun Xitoy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun lokomotiv sifatida tanlangan edi. Sohilbo'yi provintsiyalari o'zlarining raqobatdosh ustunliklari (transportdan foydalanish imkoniyati, o'sha paytdagi malakali ishi kuchining ortiqcha ta'minoti, yirik ma'muriy va sanoat markazlarining mavjudligi) tufayli sust rivojlangan hududlarni o'zlarining ortidan "tortib olishlari" mumkin deb taxmin qilingan.

Ushbu maqsadga erishish uchun davlat darajasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, asosiy kapitalga (birinchi navbatda infratuzilma loyihalariga) yirik davlat kapital qo'yilmalarini jalb etish, shuningdek, tashqi dunyo bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni umumiy liberalizatsiya qilishni nazarda tutgan Sharqiy provintsiyalarni ustuvor rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Amalga oshirilgan mintaqaviy siyosat natijasida Sharqiy, Markaziy, Shimoli-Sharqiy va G'arbiy Xitoy o'rtasida umumiy iqtisodiy va sanoat rivojlanish darajasi va xususan, alohida iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tengsizlik yuzaga keldi. Masalan, 2012 yilda Xitoyning sharqiy provintsiyalarda aholining ulushi qariyb 38% ni tashkil etgan bo'lsa, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi umumiy ulushi 50% dan ortiqni tashkil etdi. Ularga Xitoy eksportining 80% dan ortig'i to'g'ri keldi. 2000-2011 yillarda sharqiy provintsiyalarda YalMning o'rtacha o'sish sur'atlari yiliga 11% dan ortiqni tashkil etdi. 2012-yilda sharqiy sohilda joylashgan Tyantszin, Shanxay va Pekinda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 13 ming dollardan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, ortda qolgan provintsiyalarda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 3 dan 5,5 ming dollargacha bo'lgan. 1980-yillarda Xitoy bosqichli mintaqaviy siyosat kontseptsiyasini qabul qilgan bo'lib, uni "markaz-cheikka hudud" deb ta'riflandi. Birinchi bosqichda jahon bozorida raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lgan istiqbolli hududlar (markaz)ga ustuvorlik beriladi. Ikkinchi bosqichda istiqbolli hududlar rejalashtirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgandan so'ng (odatda yalpi ichki mahsulot, mintaqadagi o'rtacha ish haqi, yo'llar tarmog'ining zichligi, infratuzilmaning miqdori va sifati, telekommunikatsiyalar va boshqalar) qoloq hududlar (cheikka hududlar)ga yordam ko'rsatila boshlaydi.

Vaqt jihatidan bu jarayonni uch davrga ajratish mumkin:

– **birinchi davr (1980-yillar)** – "ayrim hududlar boshqalardan ertaroq boyib ketsin" shiori ostida Xitoyning Sharqiy - iqtisodiy markazi rivojlanishini maksimal darajada rag'batlantirish bo'ldi;

– **ikkinchi davr (1990-yillar)** – mintaqaviy nomutanosiblikning kuchayishi va natijada Sharqning jadal rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan bosh tortish davri. Biroq, markazning allaqachon muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan "ochiqlik" siyosati tufayli, periferiyaning qoloqligi saqlanib qolmoqda va kuchaymoqda;

– **uchinchi davr (2000-yillar)** – Xitoyning qoloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning boshlanish davri. "G'arbiga borish" (G'arbiy Xitoyning rivojlanishi), "Shimoli-Sharqiy Xitoyning sanoat bazasining tiklanishi" va Markaziy Xitoyning rivojlanishi dasturlari qabul qilindi.

Bunday bosqichma-bosqich mintaqaviy siyosat va "markaz-cheikka hudud" modeli iqtisodiy markazsiz - rivojlangan sharqiy provintsiyalarda hamda iqtisodiy chekka - Markaziy, Shimoli-Sharqiy va G'arbiy Xitoyning qoloq rayonlarisiz mavjud bo'lishi mumkin emas edi. Darhaqiqat, markaz xom ashyo (gaz, neft, ko'mir, paxta va boshqalar) va chetdan arzon ishi kuchi yetkazib berilishi hisobiga rivojlangan. O'z navbatida, periferiya, birinchi navbatda, markazga resurslarni sotish orqali mablag' oldi. Ikkinchidan, mehnat muhojirlarining pul o'tkazmalari, qolgan qarindoshlari uchun ozmi-ko'p normal turmush darajasini ta'minladi va orqada qolgan hududlarda ichki talabni qo'llab-quvvatladi. Uchinchidan, iqtisodiy boshqaruvning mintaqaviy modellari sharqiy provintsiyalarda sinovdan o'tkazildi, ular soliq, moliya va tashqi iqtisodiy sohalarini tartibga solish, korxonalarini boshqarish tizimlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Taxminan 2000 yilga kelib, mintaqaviy siyosatning birinchi bosqichi deyarli yakunlanadi va Xitoy ichki hududlarni rivojlantirishni rag'batlantirishning ikkinchi bosqichiga o'tdi. Qolaversa, ularni rivojlantirish strategiyasi umuman sharqiy provintsiyalarni rivojlantirish strategiyasiga o'xshaydi. Ya'ni, asosiy e'tibor infratuzilmaga sarmoya kiritish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etishga qaratilgan.

Qoloq hududlarni rivojlantirish dasturlari.

10-besh yillik reja (2001-2005) doirasida Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi G'arbiy, Shimoli-Sharqiy va Markaziy Xitoyning rivojlanishini rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqdi va amalga oshira boshladi, ularni 2015-yilgacha yakunlash rejalashtirilgan edi. Xitoyning G'arbiy provintsiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirish ("G'arbiga yurish") dasturining asosiy loyihalari Sharq-G'arb gaz quvuri (qurilishi 2002 yilda boshlangan), shuningdek, 2006 yilda Tsingxay-Tibet temir yo'lining qurilishi va ishga tushirilishi bo'ldi. Rejaga ko'ra, gaz quvuri 2014-yilda ishga tushishi kerak bo'lib, u Markaziy Osiyodan tabiiy gaz va Sinjon-Uyg'ur avtonom rayonidan sintetik gazni Xitoyning markaziy va g'arbiy hududlariga, shuningdek, Yantszi daryosi havzasiga yetkazadi. Markaziy temir yo'l Tsingxay provintsiyasining ma'muriy markazi bo'lgan Sinin shahrini Tibet avtonom

provintsiyasining ma'muriy markazi Lxasa bilan bog'laydi va dunyodagi eng baland tog' magistrali hisoblanadi. Temir yo'lining 960 km uchastkasi dengiz sathidan 4 ming metrdan ortiq balandlikda o'tkazilgan, ba'zi joylarda balandligi 5 ming metrga yetadi. 2012-yil yakuni bo'yicha Dastur doirasida davlat va mintaqaviy investitsiyalar hajmi 170 milliard dollardan ortiq bo'lgan 90 dan ortiq loyihalar amalga oshirilgan.

Shimoli-sharqiy Xitoy sanoat bazasini qayta tiklash dasturi 2003-yilda boshlangan. Uni amalga oshirishda asosiy e'tibor aksariyati 1950-yillarda Sobik Ittifoq yordamida yaratilgan davlat mulklarini qayta qurishga qaratilgan. Bular, asosan, og'ir va tog'-kon sanoatining yirik davlat korxonolari edi. Iqtisodiy islohatlar jarayonida, avvalambor, eskirgan uskunalar, texnologiyalar va boshqaruv tizimlari tufayli ular raqobatbardoshligini sezilarli darajada yo'qotgan edi. Ularning taxminan yarmi muntazam ravishda zarar bilan ishlar yoki bankrotlik yoqasiga kelgandi.

Biroq, eski korxonalarni shunchaki tugatish mumkin bo'lmagan, chunki ular, birinchidan, aholini ish bilan ta'minlansa, ikkinchidan, asosan sharqiy provintsiyalardagi zamonaviy korxonalarni arzon xomashyo bilan ta'minlagan. Shu bois 2002 yilda mavjud korxonalarni negizida raqobatbardosh zamonaviy sanoat korxonalarini tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Qayta qurish, qisman xususiyashtirish va imtiyozli shartlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ustuvor ahamiyat berildi. Avtomobil va kemasozlik, samolyot dvigatellari ishlab chiqarish, sanoat robotlari, elektr generatorlari va harbiy texnika davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan strategik sohalarga aylandi.

Markaziy Xitoyni qayta tiklash dasturi nisbatan yaqinda, ya'ni 2009 yilda boshlangan. U Xitoyning markaziy provintsiyalarida energetika sanoatini, don yetishtirishni, xom ashyoni qayta ishlashni, yuqori texnologiyali uskunalar ishlab chiqarishni, shuningdek, transport tugunlarini yaratishni ko'zda tutgan. 2010 yilda Xitoy Xalq Respublikasi Savdo vazirligi 2009-2014 yillarda Markaziy Xitoy provintsiyalari uchun xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish rejasini, shuningdek Anxuy, Xenan, Xubey, Hunan, Tszyansi va Shansi provintsiyalari uchun oltita quyi darajadagi rejalarni nashr etdi. Har bir rejada alohida muhim tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasiga e'tibor qaratildi. Masalan, Xenan provintsiyasida tog'-kon sanoati, kimyosanoat, elektronika va yuqori texnologiyali uskunalar asosiy tarmoqlar sifatida qaraldi.

Umuman olganda, butun Markaziy Xitoy uchun asosiy tarmoqlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish; yengil sanoat; metallurgiya; elektronika, biotexnologiya, yangi energiya, yangi materiallar; xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash; qishloq xo'jaligi asbob-uskunalari, neft-kimyo uskunalari, avtomobil va kemasozlik; logistika, transport bo'ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy mexanizmi soliq imtiyozlari, jumladan, soliq solinadigan bazani qisqartirish, qo'shilgan qiymat solig'i, import solig'i, yer va ko'chmas mulk obyektlarining pasaytirilgan stavkalari hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi Xitoy tajribasini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin. Xitoyning mintaqaviy siyosati bu sharqiy hududlardagi o'sish markazlarini dastlabki qo'llab-quvvatlash zarurligi g'oyasiga asoslandi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining qolgan qismini jadal rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Ya'ni, hududlararo tenglik emas, balki samaradorlik ustuvor bo'lishi kerak degan g'oyaning asta-sekin yuksalishiga olib keldi. Ushbu nazariyaga muvofiq sharqiy mintaqa o'zining yuqori iqtisodiy samaradorligi bilan kam samarali markaziy yoki g'arbiy mintaqalarga nisbatan ustuvor rivojlanish zonasini sifatida belgilangan. Bu holda rivojlanish tartibi iqtisodiy faoliyatni maqbul joylarda joylashtirish imkonini beruvchi hududiy mehnat taqsimoti tamoyiliga mos keladi.

Shunday qilib Xitoydagi mintaqaviy siyosatning yo'nalishlari qaytadan taqsimlash karakteriga va investitsiyalarni joylashtirishni o'zgartirish maqsadiga ega. Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, respublikamiz sharoitida Xitoyning hududiy tartibga keltirish tajribasi asosida quyidagilarni bosqichma-bosqich qo'llash lozim:

- o'sish nuqtalari yoki qutblarini belgilab olish;
- mintaqaviy siyosatni iqtisodiy-geografik rayonlar kesimida olib borish;
- lokomotiv vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan hududlar (misol uchun Toshkent iqtisodiy geografik rayoni, Farg'ona mintaqasi) bo'yicha ustuvor rivojlantirish dasturlarini qabul qilish;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida maksimal darajadagi imtiyozlarni yanada kengaytirish;
- sust rivojlangan sanoat rayonlarida infratuzilma ta'minoti bo'yicha faoliyatni rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi yaqqol ustunlik qilayotgan hududlarga sanoat kiritilishini tezlashirishni rag'batlantirish.

ADABIYOTLAR

1. Mo'minov N.G. Xitoy iqtisodiyotidagi zamonaviy mintaqalararo nomutanosiblik muammolari. Monografiya, – T.: "Universitet", 2016. – 120 b.
2. Пестцов С.К. Управление региональным развитием: опыт Китая// Фундаментальные исследования. – 2019. – № 10. – С. 57-63;
3. Региональная политика: зарубежный опыт и российские реалии / Под ред. А.В. Кузнецова, О.В. Кузнецовой. – М.: ИМЭМО РАН, 2015. – 137 с.
4. Самбунова Е. Китай – страна-«супергигант»: проблемы и преимущества // Страны-гиганты: проблемы территориальной стабильности. Сборник докладов – М.: МГИМО-Университет, 2010.
5. Хузиятов Т.Д. Региональная экономическая политика Китая: стратегия возрождения северо-восточных районов // Регион: экономика и социология. 2005. № 4. С. 201-202.
6. Economic Development Policies for Central and Western China (<http://www.chinabusinessreview.com/economic-development-policies-for-central-and-western-china>)